



Criteria and indicators for assessing the results of pedagogical activity in patriotic education of pre-school children

Bekhzod AKHMEDOV¹

Institute for Retraining and Advanced Training of Principals and Specialists of Preschool Educational Organizations

ARTICLE INFO

Article history:

Received July 2023
Received in revised form
15 August 2023
Accepted 25 August 2023
Available online
15 September 2023

Keywords:

preschool education,
patriotic education,
pedagogical activity,
assessment,
criteria and indicators,
empathy formation,
curiosity.

ABSTRACT

This article describes the criteria and indicators for evaluating the results of pedagogical activity in raising children in the spirit of patriotism in preschool educational organizations. Patriotism is one of the most important human qualities, it implies love for the Motherland, readiness to serve its interests, and fulfillment of constitutional obligations to protect the interests of the Motherland. From this point of view, the article is devoted to a very urgent problem.

2181-1415/© 2023 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol4-iss7/S-pp237-242>

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Maktabgacha yoshdagi bolalarning vatanparvarlik tarbiyasida pedagogik faoliyat natijalarini baholash mezonlari va ko'rsatkichlari

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

preschool education,
patriotic education,
pedagogical activity,
assessment,
criteria and indicators,
empathy formation,
curiosity.

This article describes the criteria and indicators for evaluating the results of pedagogical activity in raising children in the spirit of patriotism in preschool educational organizations. Patriotism is one of the most important human qualities, it implies love for the Motherland, readiness to serve its interests, and fulfillment of constitutional obligations to protect the interests of the Motherland. From this point of view, the article is devoted to a very urgent problem.

¹ Independent Researcher, Institute for Retraining and Advanced Training of Principals and Specialists of Preschool Educational Organizations. E-mail: sohibqiro1986@mail.ru

Критерии и показатели оценки результатов педагогической деятельности по патриотическому воспитанию дошкольников

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

дошкольное воспитание, патриотическое воспитание, педагогическая деятельность, оценивание, критерии и показатели, формирование эмпатии, любознательность.

В данной статье описаны критерии и показатели оценки результатов педагогической деятельности по воспитанию детей в духе патриотизма в дошкольных образовательных организациях. Патриотизм является одним из важнейших качеств человека, он предполагает любовь к Родине, готовность служить ее интересам, выполнение конституционных обязанностей по защите интересов Родины. С этой точки зрения статья посвящена очень актуальной проблеме.

“Vatanparvarlik” va “vatanparvarlik tarbiyasi” tushunchalari o‘z ahamiyatiga ko‘ra vatanga muhabbat tuyg‘usini shakllantirishning asosiy tayanch tushunchalari bo‘lib, doim turli xil bilim sohalari: falsafa, psixologiya, pedagogika, tarix va boshqa sohalar olimlarining e‘tiborini tortib kelgan.

Ma‘lumki, turli tarixiy davrlarda ushbu “vatanparvarlik” tushunchasining mohiyati turlicha ta‘riflangan: uni tushunishning ustuvor yo‘nalishlari va jihatlari o‘zgargan.

Vatanparvarlik tarixan odamlar hayotining ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlari ta‘sirida vujudga keladi va shu sharoitlarning o‘zgarishi bilan bog‘liq holda o‘z mazmunini o‘zgartiradi.

Vatanparvarlik tarbiyasi muammolari o‘tmishdagi mutafakkir va jamoat arboblari Navoiy, Bobir, Amir Temur va boshqalarning asarlarida o‘z ifodasini topgan. Ular tarbiyadan asosiy maqsad o‘z xalqining, tili, madaniyati, urf-odatlarini sevadigan, yuksak ma‘naviyatli, ilm-fanga mehrli, mehnatsevar, Vatanga xizmat qiladigan vatanparvar insonni shakllantirishdan iborat deb hisoblaganlar.

Vatanparvarlik – insonning o‘zi tug‘ilib o‘sgan, kamol topgan zaminiga bo‘lgan muhabbatini ifoda etadigan ijtimoiy va ma‘naviy-axloqiy fazilatlari yig‘indisi. Vatanparvarlikning asosiy belgisi – fidoyilik, oliy ko‘rinishi esa jasorat hisoblanadi. Ana shu fidoyilik va jasorat xalqimizning ma‘naviy merosida hamda ajdodlarimiz timsolida o‘z aksini topgan. Yurtimizda dunyoga kelib, o‘z ilmiy-ijodiy faoliyati bilan dunyoga mashhur bo‘lgan allomalarimizning vatan, vatanparvarlik haqidagi fikrlari, asarlari nafaqat O‘zbekiston, balki dunyodagi barcha insonlar uchun ham ibrat vazifasini o‘tashi mumkin. Ular nafaqat O‘zbekiston, balki butun dunyo sivilizatsiyasi rivojiga munosib hissalarini qo‘shgan insonlardir [7].

Bolalarda Vatanga muhabbat tuyg‘usini shakllantirish, ularni jonajon o‘lka madaniyati va tarixi, qadriyatlari, an‘ana va urf-odatlari bilan tanishtirish maktabgacha ta‘lim-tarbiya oldida turgan muhim vazifalardan biridir.

Vatanparvarlik tarbiyasida pedagogik faoliyat natijalarini baholashda quyidagi mezon va ko‘rsatkichlardan foydalanish tavsiya etiladi:

– his-tuyg‘uli – kichik Vatanning ona-uyiga, madaniy merosiga, tabiatiga hamdardlik ifodasi;

– kognitiv – ona-uy, madaniy meros, kichik Vatan tabiati haqida tasavvurlarning mavjudligi, qiziqishning namoyon bo‘lishi;

- motivatsion – kognitiv va boshqa faoliyat turlariga intilish va xohish;
- amaliy – yaqinlarga g'amxo'rlik qilish, atrofdagilarga yordam berish qobiliyati.

Ushbu mezonlarni tanlash maktabgacha yoshdagi bolalar dunyoqarashining o'ziga xos xususiyatlari, jumladan, maktabgacha yoshdagi bolada vatan tushunchasining o'ziga xosligi bilan bog'liq. Bu bolaga aziz va yaqin ekanligi, ya'ni ota-onaga va boshqa hissiy yaqin odamlarga, uning atrofidagi tabiatga, o'yinchoqlarga, o'yinlarga, qo'shiqlarga, majoziy so'zlarga, uni xursand qiladigan narsalarga bo'lgan mehr to'g'risidagi aniq tasavvurlar bilan chambarchas bog'liq [2].

Ruhiy jarayonlar – qiziquvchanlik va empatiya – bolaning atrof olam haqidagi tasavvurlari bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ular qiziquvchanlikni faollashtiradi, qiziquvchanlik bolani qiziqish bilan birga kechuvchi kognitiv faoliyatga undaydi; qiziqish empatiyani keltirib chiqaradi, bu maktabgacha yoshdagi bola uchun juda muhimdir, kognitiv jarayon davomida uning o'zi his-tuyg'ular maktabida yashaydi [1].

Hissiy-tuyg'uli mezonini tanlash L.S.Vigotskiyning bolalar pedagogik psixologiyasiga bag'ishlangan his-tuyg'ular haqidagi tadqiqotlari bilan bog'liq. Hissiyotlarni L.S.Vigotskiy tafakkurning sub'yektning hissiy- predmetli faoliyati bilan bog'lanishining ichki psixologik mexanizmi sifatida ko'rib chiqdi, u nafaqat atrofidagi voqelikni passiv mushohada qiladi, balki unga noxolis munosabatda bo'ladi, uni o'z ehtiyojlari va manfaatlariga muvofiq faol ravishda o'zgartiradi [4].

Shuningdek, ushbu mezonni tanlash I.A.Ilinning vatanparvarlik tarbiyasi to'g'risida quyidagicha ifodalangan falsafiy g'oyasi bilan bog'liq: milliy axloqiy xarakterni hayotda chuqurlashtirish va ildiz orttirish – demak bolani yashashga o'rgatish, uning axloqiy kuchlarini harakatga keltirish demakdir [6].

Hissiy-tuyg'uli mezonining ko'rsatkichi – bu empatiya tuyg'usi bo'lib, biz uni boshqa odamga, shuningdek, tirik tabiat vakiliga nisbatan insonparvarlik munosabati shakllaridan biri sifatida tushunamiz, bu boshqa odamning holatini tushunishda va javob berishga tayyorlikda ifodalanadi (uning quvonchiga hamdardlik bildirish yoki quvonish).

Bolada boshqalarga nisbatan zukko, insonparvar, sezgir munosabatda bo'lish, uning ichki motivatsiyasi, bola shaxsining tabiatiga aylangan holda tarbiyalash mutlaqo yangi sifat va murakkablikdagi vazifadir.

Uning murakkabligi shundaki, biz bolada ezgu his-tuyg'ularni uyg'otish orqali uning "insondagi insonparvarlik"ni tavsiflovchi va insonning muhim xususiyatlarini ifodalovchi o'z-o'zini anglash sohasiga daxl qilamiz.

Bolalarda avvaldan empatiya, hamdardlik tuyg'usi mavjud, u bolaning ko'rgan, qiladigan, bajaradigan ishlarida namoyon bo'ladi va agar empatiya rivojlantirilmasa, biz maktabgacha yoshdagi bolada hissiy karlikni shakllantiramiz.

Empatiyani shakllantirish jarayoni uch bosqichdan o'tadi – kattalarga taqlid qilish orqali hissiy qabul qilish, mustaqil hissiy qabul qilish, anglash va bolaning shaxsining qadriyat yo'nalishlari tizimiga qo'shilish [4].

Shunga muvofiq vatanparvarlik tarbiyasining uch darajasini ajratamiz.

Past daraja – kattalar tashabbusi bilan, boshqalarning holatini sezadi, lekin unga munosabat bildirmaydi.

O'rta daraja – kattalar tashabbusi bilan u boshqalarning holatini sezadi, unga hissiy va samarali munosabatda bo'ladi.

Yuqori daraja – uning o'zi boshqalarning holatini ko'radi, ularning qiyinchiliklarini oldindan biladi va ularga faoliyatda, ishda munosib javob beradi.

Vatanparvarlik tarbiyasining navbatdagi mezoni kognitivdir. Uning ko'rsatkichi katta maktabgacha yoshdagi bolalarning atrofdagi dunyoga qiziquvchanligi va tasavvuri hisoblanadi. Qiziquvchanlik – bu yangi bilim olishga moyillikdir. Bolalar atrofdagi dunyoning qiziquvchan tadqiqotchilaridir, bu xususiyat ularga tabiatan xosdir. I.M. Sechenov tug'ma va "maktabgacha yoshdagi bolaning asab-ruhiy tashkillashtirilishining o'ta qimmatli xususiyati" – atrofdagi hayotni tushunishga ongsiz ravishda intilish, haqida yozgan [5]. Bu xususiyatni I.P. Pavlov "bu nima?" refleksi deb nomladi, uning ta'siri ostida bola predmetlarning fazilatlarini kashf etadi, ular o'rtasida yangi aloqalarni o'rnatadi. Bolalarning qiziquvchanligi bola shaxsining muhim xususiyati bo'lib, uning voqelikka faol kognitiv munosabatini tavsiflaydi. Qiziquvchanlik atrofdagi dunyoning predmetlari va hodisalari haqidagi bilimlarni rag'batlantiradi [10].

Bola o'z uyi, tabiati, ona yurtining madaniy merosi haqida yangi tasavvurlarni kashf etadi. Ko'p yillar davomida ijtimoiy olamning mazmunini, bola tomonidan tushunib bo'lmaydigan ijtimoiy hodisalarni erta bilishga asossiz ishtiyoq mavjud edi, bu esa o'z uyi tuyg'usi shakllanishining yo'qolishiga olib keldi.

Madaniy merosni bilish o'z uyida bolaning dunyoqarashini shakllantiradigan muhim vositadir. Mahalliy tabiatning go'zalligi, o'zbek xalqi turmushining o'ziga xos xususiyatlari, ularning har tomonlama iste'dodi, mehnatsevarligi, nekbinligi bolalar oldida jonli va bevosita xalq ustalarining asarlarida namoyon bo'ladi [6].

Biz tabiatga vatanparvarlikni tarbiyalashda alohida o'rin beramiz, chunki u doimo bolani o'rab turadi, uning hayotiga juda erta kiradi, uning uchun mavjud va tushunarli. U o'zini yovvoyi tabiat vakillari bilan kuchli, ahamiyatli his qiladi, chunki u ular uchun biror narsa qila oladi: yordam berish, hayotini saqlab qolish. Bola o'zining ijodkor ekanligini tushuna boshlaydi, uning mas'uliyati shakllanadi, o'ziga beradigan bahosi ortadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar qiziquvchan tadqiqotchilardir va tabiat ularga o'zgaruvchan dunyoning go'zalligini ko'rish uchun ajoyib imkoniyat yaratadi, bu juda ko'p yorqin taassurotlar beradi, quvonchli kechinmalarni va demak sevgini keltirib chiqaradi.

Maktabgacha yoshdagi bola o'zini hayvonot olami vakillari bilan osongina tenglashtiradi, hech ikkilanmasdan, ularga to'liq mutanosiblik beradi ("Mening oilam" diagnostik rasmida mushuk va it uning to'laqonli va ahamiyatli a'zosi hisoblanadi).

Eksperimental tadqiqot jarayonida biz qiziquvchanlikni shakllantirishning quyidagi jarayonlarini aniqladik: qiziquvchanlikning namoyon bo'lishida kattalarga taqlid qilish, kattalar bilan birgalikdagi faoliyatda yangi narsalarni o'rganishga qiziqish va bolaning atrofdagi voqelik predmetlari va hodisalarini mustaqil o'rganishida namoyon bo'ladi.

Shunga ko'ra, biz kognitiv mezon bo'yicha katta maktabgacha yoshdagi bola rivojlanishining uch darajasini ajratamiz.

Past daraja – qiziquvchanlikni namoyon qilmaydi.

O'rta daraja – kattalar tashabbusi bilan, ob'yektni ishtiyoq bilan o'rganadi, berilgan savollarga javob izlaydi.

Yuqori daraja – uning o'zi atrofdagi dunyoni o'rganishga qiziqish bildiradi, savollar beradi, turli madaniy manbalarga murojaat qiladi, tajribalar o'tkazadi.

Vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirishning asosiy mezonlaridan biri amaliy bo'lib, bolaning o'zgalarga bo'lgan munosabatini ezgu ishlar va xatti-harakatlarida namoyon qiladi, ular bilan muloqot qilishdan zavq olishi, ular hayotida o'z hissasini,

ahamiyatini va daxldorligini his etishida ifodalanadi, shu bilan o'zini tatbiq etishga bo'lgan ehtiyojini amalga oshiradi. Shunday qilib, faoliyatdagi hamdardlikning beg'araz namoyon qilishi, xatti-harakati axloqiy, vatanparvarlik tarbiyasida fundamental psixologik siljish sifatida qaraladi [5].

Bolaning boshqalarga nisbatan samarali-amaliy munosabatini rivojlantirish uch bosqichdan o'tadi – kattalarga taqlid qilish, kattalar tashabbusi bilan va o'z ishtiyoqiga binoan.

Shunga ko'ra, biz bolaning o'yin, ijodiy va samarali faoliyatida boshqalarga nisbatan hissiy jihatdan samarali munosabati namoyon bo'lishining uch darajasini ajratamiz.

Past daraja – u bilan birgalikdagi faoliyatda kattalarga taqlid qilish.

O'rta daraja – kattalar tomonidan tashabbus bilan va birgalikdagi faoliyatda va mustaqil ravishda.

Yuqori daraja – mustaqil ravishda, erkin faoliyatda o'z tashabbusi bilan.

Tadqiqot ish natijalari vatanparvarlik mezonlari va ko'rsatkichlari quyidagilardan iborat ekanligini tasdiqladi: hissiy jihatdan sezgir (o'z uyiga, madaniy merosiga, kichik Vatan tabiatiga hamdardlik bildirish); kognitiv (o'z uyi, madaniy meros, kichik Vatan tabiati haqidagi tasavvurlarning mavjudligi, qiziquvchanlikning namoyon bo'lishi); motivatsion (kognitiv va boshqa faoliyatga intilish va xohish); amaliy (boshqalarga g'amxo'rlik qilish, boshqalarga yordam berish qobiliyati).

Maktabgacha yoshdagi bolalarda vatanparvarlik tarbiyasi muammosini keyingi hal etish vatanparvarlik tarbiyasi masalalari bo'yicha tarbiyachilarning kasbiy mahoratini oshirish, maktabgacha ta'lim tashkilotining maktabgacha yoshdagi bolalarda vatanparvarlikni tarbiyalashning muhim pedagogik sharti sifatida oila bilan o'zaro hamkorligini kuchaytirish, bolalar bog'chasi va boshlang'ich maktabda vatanparvarlik tarbiyasining uzluksizligini amalga oshirish muammolarini o'rganishning maqsadga muvofiqligini ko'rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Алиева С.А. Военно-патриотическое воспитание школьников / Учебно-методическое пособие. М.: Межвузовский центр, 2003. – 146 с.
2. Баринова Р.К. Воспитание любви к родному городу/Подготовка детей к школе общее дело. – Махачкала.: Изд-во Дагучпедгиз, 1980.- С.60-74.
3. Валеев И.И. Патриотическое самовоспитание учащихся. Уфа.; Госкомиздат, 2001.- 179 с.
4. Выготский Л.С. Детская психология / Собр. соч.: в 6 т. Т.4. – М.: Просвещение, 1984. – 432 с.
5. Жумаканов А.Р. Педагогические основы патриотического воспитания учащихся начальной школы: Автореф.дисс докт.наук. Алма-Ата, 1999. 54 с.
6. Ильин И.А. Путь духовного обновления / Ильин И.А. Собрание сочинений: В 10 т. Т. 1. М.: Русская книга, 1993. — 357 с.
7. Иномова М.О. Фарзанд ниҳол, ота-она боғбон. – Тошкент: Ўқитувчи, 1993. – 56 б.
8. Коменский Я.А. Мир чувственных вещей в картинках /Я.А. Коменский – М.: Педагогика, 2002. – 388 с.

9. Кондратова В.В. Патриотическое воспитание через игру //Дошк. воспитание. 1979. -Н9. -С.8-12.
10. Павлов И.П. Избранные произведения / Под ред. Х.С. Коштоянса. М.: Госполитиздат, 1991 – 583 с.
11. Рожков М.И., Байбородова Л.В. Теория и методика воспитания: учебник для студентов учреждений высшего профессионального образования. – Ярославл: Изд-во ЯГПУ им. К.Д. Ушинского, 2012. – 415 с.
12. Ушинский К.Д. Воспитание человека: Избранное. – М.: Карапуз, 2000.-256 с.